



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Minarova Murshida

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-3224-145X

m.murshida@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining innovatsion faoliyati holati kompleks tahlil qilinib, zamonaviy bank xizmatlarini joriy etish jarayonidagi muammolar va imkoniyatlar yoritilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, mahsulot va xizmatlarda innovatsion yondashuvlar qo'llanilishi, xorijiy tajribalar asosida baholandi. Shuningdek, tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash va butun bank tizimini transformatsiya qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Maqola bank sektorida innovatsion faoliyatni chuqurlashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, tijorat banklari, raqamli transformatsiya, bank texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, bank islohoti, mijozlarga xizmat ko'rsatish, raqamli iqtisodiyot.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Минарова Муршида

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье проведен комплексный анализ состояния инновационной деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан, освещены проблемы и возможности в процессе внедрения современных банковских услуг. Внедрение цифровых технологий, применение инновационных подходов к продуктам и услугам оценивались на основе зарубежного опыта. Также были разработаны предложения и рекомендации, направленные на повышение конкурентоспособности коммерческих банков, улучшение качества предоставляемых клиентам услуг и трансформацию всей банковской системы. Статья служит научно-практической основой, направленной на углубление инновационной деятельности в банковском секторе.

Ключевые слова: инновационная деятельность, коммерческие банки, цифровая трансформация, банковские технологии, финансовые услуги, банковская реформа, обслуживание клиентов, цифровая экономика.

WAYS TO IMPROVE INNOVATIVE ACTIVITY IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Minarova Murshida

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article comprehensively analyzes the state of innovative activity of commercial banks of the Republic of Uzbekistan and highlights the problems and opportunities in the process of introducing modern banking services. The implementation of digital technologies, the use of innovative approaches in products and services were assessed based on foreign experience. Also, proposals and recommendations were developed aimed at increasing the competitiveness of commercial banks, improving the quality of services provided to clients, and transforming the entire banking system. The article serves as a scientific and practical basis for deepening innovative activity in the banking sector.*

Keywords: *innovative activity, commercial banks, digital transformation, banking technologies, financial services, banking reform, customer service, digital economy.*

Kirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy holatini yaxshilash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bank sektorida kuchayib borayotgan raqobat sharoitida, yangi xizmatlar va texnologiyalarni tizimli ravishda joriy qilish orqali biznes modellarini muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda bozorning barcha segmentlarini samarali zabt etish tijorat banklari uchun muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Aynan shu sababli, resurs salohiyatini boshqarishni optimallashtirish, mijozlarning xohish-istaklarini qondirish, shuningdek, bozorning yangi talablariga munosib javob berish uchun innovatsion xizmatlarini rivojlantirish va texnik takomillashtirishga qaratilgan tegishli innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish banklar samarali faoliyatining zarur shartlaridan biridir.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston bank tizimi rivojlanishining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, oldinga qo'yilgan asosiy vazifani amalga oshirishga, ya'ni iqtisodiyotning yanada jadal rivojlanishi uchun poydevor yaratishga katta hissa qo'shgan holda, har bir bosqichda mamlakatdagi bozor islohotlarining faol ishtirokchisi bo'ldi. Respublikada bank tizimini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish bosqichidagi muhim vazifalardan biri hisoblanib kelmoqda.

Bozor islohotlarini amalga oshirishdagi har bir bosqichning barcha asosiy iqtisodiy muammolari ko'p jihatdan mazkur vazifaning hal etilishiga bog'liq. O'zbekiston bank tizimidagi islohotlar hozirgi zamon bank faoliyati sohasidagi chuqur va muhim o'zgarishlar zamidagi amalga oshirilmoqda. Bunda banklar faoliyatini boshqarishni qayta tashkil qilishga nisbatan ehtiyoj paydo bo'ladi. Tez o'zgarib turuvchi hozirgi zamonda bank boshqaruvining butun tizimi ham tez rivojlanmoqda. Bu, birinchi navbatda, bozor islohotlarini amalga oshirayotgan mamlakatlarda inobatga olinishi zarur.

Moliya sohasidagi innovatsion jarayonlarning dinamikasi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshib, yangi mahsulotlar va texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etish biznes modellarini muvaffaqiyatli amalga oshirish va moliya bozorining segmentlarini samarali egallab olinmoqda. Xususan, bunda tijorat banklari yetakchi o'rinlarni egallab, birinchi navbatda resurs salohiyatini boshqarishni optimallashtirish, mijozlarning mavjud ehtiyojlarini yanada to'laqonli qondirish, shuningdek, bank xizmatlarini takomillashtirib kelmoqdalar. Tijorat banklari globallashtirish sharoitida iqtisodiy o'zgarishlarga muvofiq ravishda mijozlarning yangi innovatsion xizmatlarga bo'lgan talablarini qondirishga harakat qilib kelmoqdalar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda Prezident Farmonlari va hukumat qarorlari asosida bank tizimini isloh qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qator chora-

tadbirlar amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida tijorat banklari oldida turgan asosiy vazifa – bu mijozlarga tezkor, xavfsiz va interaktiv xizmatlar ko'rsatish imkonini beruvchi zamonaviy infratuzilmani shakllantirishdir.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining innovatsion faoliyati holati tahlil qilinadi, mavjud muammolar va to'siqlar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – tijorat banklari faoliyatida innovatsion yondashuvlarni chuqurlashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish va bank xizmatlari sifatini yangi bosqichga olib chiqishdir.

Adabiyotlar sharhi.

Vaxrushev (2013) zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion bank mahsuloti ko'pincha yangi takomillashgan bank xizmati yoki operatsiya ko'rinishida amaliyotga joriy qilingan bankning innovatsion faoliyati natijasi sifatida qaraladi deb hisoblaydi.

Proxorov (2014) bank innovatsiyasi o'z yondashuvi bilan, odatda, taqdim etilayotgan mahsulotlar, xizmatlar, operatsiyalar, biznes jarayonlarini takomillashtirish yoki yaratishdan iborat bo'lgan bank faoliyatini modernizatsiya qilish va mijozlar ehtiyojini yaxshiroq qondirishga qaratilgan jarayondir deb keltirgan.

Zakshevskiy (2021) umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda bank innovatsiyalari keng ma'noda – aloqa va internet texnologiyalari asosida bank operatsiyalarini amalga oshirishning tor tushunchasidan tortib, bank faoliyatining barcha jabhalaridagi innovatsiyalargacha ko'rib chiqishni taklif etadi. Ya'ni, bank innovatsiyasi, odatda mahsulot, xizmat yoki texnologiya sifatida talqin qilinadi, uning kiritilishi esa bank faoliyatidagi yangi sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan, bank tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, innovatsiyani ilgari taklif qilinganidan ko'ra jozibador iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan, bankning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan bank mahsuloti yoki xizmatlarini yaratish deb ta'riflashimiz mumkin.

Gubernatorovning (2015) "Tarmoqni innovatsion rivojlantirishni boshqarish metodologiyasi va tashkil etilishi" nomli ilmiy tadqiqot ishida "Innovatsiya – bu yangi g'oya, maxsulot, xizmat, shuningdek, texnologik tuzilmani tubdan o'zgarishiga olib keluvchi yangiliklarni ishlab chiqarish tizimiga joriy etish ko'rinishidagi intellektual mehnat natijasi" deb hisoblagan.

Mamlakatimiz olimlaridan Tangishov (2015) tadbirkorlar tijorat banklari tomonidan tezkor, sifatli, arzon va xavfsiz to'lovlarni amalga oshirishni xohlashlarini inobatga olib tijorat banklari faoliyatida bank mahsulotlari va sifatini oshirishda innovatsion yondashuv asosida tashkil etishni e'tirof etgan.

Xakimov (2021) FinTech loyihalari bevosita bankning o'zida shakllantirilishi va amalga oshirilishi lozim. Chunki boshqa tashkilotlarda ishlab chiqilgan innovatsion maxsulotlarni sotib olish va amaliy faoliyatga joriy etish mohiyatan modernizatsiyalash tarzida talqin etiladi. Bank innovatsiyalarining o'ziga xos bo'lgan xususiyati bankning xususiy innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bilan bir qatorda, innovatsion ekotizimni yuzaga keltirishga xizmat qilishi lozim deb hisoblaydi.

Abdullayevaning (2017) fikriga ko'ra, telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, internet tarmog'ining kengayishi, qulay interfeysga ega raqamli bankingni joriy etish, elektron bank xizmatlarini ko'rsatishda foydalanish banklar o'rtasida mijozlarni jalb qilish, ularga elektron bank xizmatlarini ko'rsatish sohasida raqobatning shakllanishiga asos bo'lmoqda deb ta'kidlab o'tgan.

Akbarov (2025) tijorat banklari iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi, ular nafaqat xususiy va korporativ mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, balki kichik va o'rta biznesning rivojiga yordam berish, kreditlar va depozitlar bilan ishlash, shuningdek, to'lov tizimlarini amalga

oshirishga ham hissa qo'shadilar. Bankning samaradorligini baholash — bu moliyaviy va nomoliyaviy parametrlarni o'z ichiga olgan kompleks jarayon hisoblanadi deb keltirgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy yondashuv sifatida tizimli tahlil, solishtirma va diagnostik usullar qo'llanildi. Avvalo, innovatsion faoliyatning nazariy asoslari o'rganilib, tijorat banklarida innovatsiyalarni joriy etishning asosiy yo'nalishlari aniqlab berildi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarning o'rganilishi orqali milliy bank tizimini rivojlantirishda foydalanish mumkin bo'lgan samarali yondashuvlar aniqlab chiqildi. Muammolar va mavjud to'siqlar aniq diagnostika asosida baholanib, ularni bartaraf etish yo'llariga doir takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston bank tizimini yanada isloh qilishning umumiy yo'nalishida ushbu masalaning muhimligini hisobga olgan holda, respublikada banklar faoliyatini boshqarishning rolini kuchaytirish bo'yicha faol ishlar qilinmoqda. Xalqaro tajribani inobatga olgan holda, O'zR Markaziy banki Bazel qo'mitasining yangi qoidalariga rioya qiladi va o'z yo'riqnomalarining talablarini ularga mumkin qadar yaqinlashtirmoqda. Yangi qoidalarining amalga kiritilishida reytingga ega bo'lgan yoki uni olishni xohlovchi O'zbekiston banklari (TIF Milliy banki jahonning mingta eng ishonchli va yirik banklari safidan joy oldi) ushbu qoidalarga mos kelishi kerak. Bu yana shu narsa bilan bog'liqki, xorijiy kontragentlar, sarmoyadorlar va mijozlar Bazel qo'mitasining talablariga mos keluvchi ko'rsatkichlarni hisoblab chiqadilar (Tashmatov, 2021).

Tahlilchilar u yoki bu bank yangi qoidalarini joriy etish ishlarini qanday amalga oshirayotganligini diqqat bilan kuzatishadi. Yangi kelishuv banklardan xatarni hisobga olgan holda foydalilikni hisob-kitob qilishga nisbatan qo'yiladigan talablarga katta e'tibor qaratishni talab qiladi. Bu bank mahsulotlari sifatining oshishiga va samarali narxlarning shakllanishiga olib kelishi lozim. O'z navbatida, uchinchi komponent doirasida bozor intizomi sohasidagi talablar moliyaviy va operatsion xatarlar haqidagi axborotning shaffofligini ta'minlaydi. Bank mijozlari xatarlarni nazorat qilish tizimi haqida va bankning ishonchlilik darajasi haqida to'liq axborot olishi mumkin.

Xorij mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda, respublikada bank tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni xalq etish lozim:

- kuchli axborot tizimini barpo etish va uning ma'lumotlar bazasiga banklarning kreditorlari va debitorlari hamda ularning aksiyadorlari haqidagi ma'lumotlarni kiritish;
- hukumat kafolati ostida qo'shma banklar tashkil etishni kengaytirish, ushbu banklar resurslarining kamida yarmini investitsiyalar sifatida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotiga yo'naltirish;
- bank tizimining aktivlarini birlashtirishga, tijorat banklarini kapitallashtirishga, ular sarmoyasini oshirishga ko'maklashish;
- birlashish, qo'shilish, shuningdek, mulkdorlarni almashtirish tadbirlaridan foydalangan holda moliya-sanoat guruhlarining tashkil etilishini faollashtirish;
- mintaqaviy tijorat banklariga moliyaviy-xo'jalik faoliyatining qayishqoq me'yorlarini belgilash. Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarning amalga oshirilishi bank tizimi faoliyatini iqtisodiyotda va jamiyatda rivojlanayotgan bozor munosabatlariga muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Yangidan-yangi bank xizmatlari va texnologiyalarni joriy etishga asoslangan bank tizimining innovatsion rivojlanishining birinchi vektori bu – bugungi kunda asosiy rivojlanish tendensiyasi bo'lgan moliyaviy globallashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, u yoki bu darajada barcha iqtisodiyot sub'ektlarining hatti-harakatlariga va dunyoda sodir bo'layotgan barcha voqea-hodisalarga bevosita bog'liq sanaladi. Moliya bozori globallashtirishning immanent xususiyatlaridan biri bu – bank faoliyatini tartibga solishning yanada liberallashtirishidir.


Natijada, bank moliya faoliyatining turlari – tijorat, vositachilik, investitsiya, sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi institutsional farqlar kamayishiga olib kelib, bunda banklar bir vaqtning o'zida moliya bozorining ko'plab segmentlarida raqobatlashishlariga olib kelmoqda. Bundan tashqari, yirik banklar mijozlarni moliyaviy, investitsion va tovar bozorlari bilan bog'laydigan kuchli axborot tuzilmalarini tashkil etishi natijasida hamda keng ko'lamli konsalting xizmatlarini taqdim etishi moliya bozoridagi ixtisoslashgan konsalting kompaniyalarini bozordan siqib chiqarmoqda (Khodjimamedov, 2022).

Bank innovatsiyalarini takomillashtirishning ikkinchi muhim vektori – iste'molchiga bank xizmatlarini ko'rsatishning eng yangi usullari va marketing strategiyalari bilan bog'liq bo'lib, bunda globallashtirish va axborot texnologiyalari, yuqorida e'tirof etganimizdek, tijorat banklarini nobank moliya institutlari bilan raqobatlashishga majbur qiladi. Shu nuqtai nazardan, onlayn texnologiyalardan faol foydalanish bozor munosabatlarining shaffofligini ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib, mijozlarga ko'p kuch va vaqt sarflamasdan, eng maqbul bank xizmatlari takliflarini tanlash imkonini beradi, bu esa o'z navbatida, narxlarni belgilash imkoniyatlarini sezilarli darajada qisqartiradi.


O'zbekiston bank tizimi keyingi yillarda jadal sur'atlarda raqamlashtirilishini hisobga olsak, bu jarayon asosan mobil va internet-banking xizmatlarini kengaytirish, moliyaviy texnologiyalarni joriy qilish, mijozlar ehtiyojiga mos yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish orqali namoyon bo'lmoqda. Ayni paytda yurtimizdagi yetakchi tijorat banklari – "Ipoteka bank", "Agrobank", "Hamkorbank", "Kapitalbank", "TBC Bank" va boshqalar raqamli texnologiyalar asosida ishlovchi mobil ilovalar, onlayn kreditlash va kontaktsiz to'lov tizimlarini faol joriy qilmoqda.



Raqamli ilovalar orqali
real vaqt rejimida
hisob raqamlarini
boshqarish



QR kod asosida to'lov tizimlari



Elektron identifikatsiya (ID) va e-imzo orqali
xizmatlardan foydalanish



Sun'iy intellekt asosida
ishlovchi chatbotlar
yordamida mijozlarga xizmat
ko'rsatish



Avtomatlashtirilgan kredit
tahlili va skoring tizimlari



Onlayn ipoteka va
mikrokreditlash xizmatlari

1-rasm. Banklar tomonidan joriy etilgan ayrim innovatsion yechimlar

Manba: muallif tomonidan ilmiy izlanishlari natijasida shakllantirildi

Markaziy bank va boshqa tartibga soluvchi organlar tomonidan 2020-2025-yillarga mo'ljallangan moliyaviy sektorda raqamli rivojlanish strategiyasi asosida barcha tijorat banklarida axborot texnologiyalariga oid investitsiyalar hajmi oshirilmoqda. Bu esa innovatsion faoliyatni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, mijozlar sonining ko'payishi, ularning turli darajadagi raqamli savodxonligi, shuningdek, texnologik yangiliklarning infratuzilmaga moslashuv darajasi innovatsiyalarni joriy etishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi uch yil ichida mobil bank ilovalari foydalanuvchilari soni 3 baravarga oshgan. Shuningdek, onlayn to'lovlar ulushi umumiy bank operatsiyalari ichida 60 foizdan oshgan.

Yuqoridagilar O'zbekiston tijorat banklari innovatsion faoliyatining rivojlanayotganini ko'rsatsa-da, hali ham to'liq raqamli transformatsiyaga erishilganicha yo'q. Buning uchun tizimli yondashuv, ilg'or texnologiyalarni faol joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston tijorat banklarining innovatsion faoliyatiga oid tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yillikda texnologik yangilanishlar sezilarli darajada faollashgan. Biroq bu jarayonlar banklar kesimida bir xilda emas. Yirik banklar moliyaviy va texnologik resurslar jihatidan ustunlikka ega bo'lgani sababli, raqamli transformatsiyada yetakchilik qilmoqda. Kichik va o'rta banklar esa texnologik modernizatsiya jarayonida ayrim to'siqlarga duch kelmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi asosiy xulosalarni keltirish mumkin:

– Bank xizmatlarining raqamlashtirilganligi darajasi oshmoqda, lekin u barcha banklarda bir xil emas.

– Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati innovatsion texnologiyalar orqali sezilarli yaxshilangan, ammo qishloq hududlaridagi raqamli infratuzilma sust rivojlangan.

– Banklar raqamli mahsulotlar yaratishda ko'proq xorijiy texnologik hamkorlarga tayangan, bu esa milliy IT salohiyatini rivojlantirish zaruratini tug'diradi.

– Xodimlar malakasini oshirish va ichki tizimlarni avtomatlashtirish borasida hali to'laqonli tizim shakllanmagan.

Statistik ma'lumotlar asosida aniqlanishicha, 2024-yil oxiriga kelib, banklar tomonidan berilgan onlayn kreditlar umumiy kredit portfelining 28 foizini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2020-yilda atigi 7 foizni tashkil etgan edi. Bundan tashqari, fintech xizmatlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 3 yil ichida 4,5 baravarga ortgan. Ushbu raqamlar bank tizimidagi innovatsion faoliyat salohiyatining yuqoriligini, biroq uni to'laqonli amalga oshirish uchun muvofiqlashtirilgan strategik yondashuv zarurligini anglatadi.

Shuning uchun ham raqamli texnologiyalarning tijorat banklarida samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarda raqamli texnologiyalar banklarning samaradorlik va xavflarni baholash usullarini yangilab kelmoqda. Hozirgi kunda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qilish (Big Data) banklar uchun qarz xavflarini aniq prognoz qilishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili, banklarning samaradorlik va barqarorligini oshirishga yordam beradi.

O'zbekistonning bank tizimi globallashtirish shart-sharoitlarida rivojlanishda davom etmoqda. Bu jarayonda xorijiy tajribalardan foydalanish mamlakatimizning bank tizimini mustahkamlash uchun muhimdir. AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa tajribasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston banklari quyidagi usullarni o'z faoliyatiga joriy etishi mumkin:

Muntazam stress-testlash va xavflarni baholash — iqtisodiy va siyosiy noma'lumliklarni hisobga olish, bu moliyaviy barqarorlikni oshirishga yordam beradi.

Nomoliyaviy omillarni inobatga olish — ijtimoiy, ekologik va texnologik omillarni ham baholash, bu banklarning xalqaro bozordagi muhitini yaxshilashga yordam beradi.

1-jadval

Tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari (2024-yil 1-iyul holatiga)

Ko'rsatkichlar	Jami (mlrd so'm)	Ulushi (%)
Aktivlar	690 424	100%
Kreditlar	493 952	100%
Kapital	104 158	100%
Depozitlar	265 472	100%

Manba: Abduvaliev (2024)

Raqamlilashtirish orqali samaradorlikni baholash — katta ma'lumotlarni tahlil qilish va sun'iy intellektni qo'llash orqali baholash, bu tezkor va aniq qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston tijorat banklarining umumiy aktivlari 690,4 trillion so'mni tashkil etmoqda. Bu moliyaviy sektor hajmining yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu aktivlarning qariyb 72% i kreditlarga yo'naltirilgan (493,9 trln so'm), bu esa banklar asosiy faoliyati kreditlash ekani va iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi rolini tasdiqlaydi. Depozitlar umumiy aktivlarning 38,4 foizini tashkil etmoqda. Bu holat banklar hali ham asosiy moliyalashtirish manbai sifatida depozit bazasiga suyanayotganini anglatadi.

Banklar kapitalining umumiy hajmi 104,1 trillion so'mni tashkil qilmoqda, bu esa banklar tomonidan ko'proq kredit va sarmoyaviy faoliyat yuritish imkoniyatini bildiradi. Kapitalning yarmidan ko'prog'i (63%) yana davlat banklariga to'g'ri keladi, bu ularning moliyaviy barqarorligini va keng ko'lamli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini ko'rsatadi.

2-jadval

Banklar kesimida innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari

Bank nomi	Aktivlar (mlrd so'm)	Kreditlar (mlrd so'm)	Kapital (mlrd so'm)	Depozitlar (mlrd so'm)
O'zmilliybank	130 093	101 652	18 554	38 057
O'zsanoatqurilishbank	80 108	60 330	9 492	15 906
Agrobank	73 938	59 308	11 966	17 008
Asaka bank	53 299	37 181	6 738	12 852
Xalq banki	41 411	27 251	6 030	20 490
Ipoteka-bank	48 959	35 653	7 771	20 455
Kapital bank	42 799	29 317	4 945	33 639
Hamkorbank	23 588	17 995	4 409	9 728

Manba: INVEXI (2024)

2024-yil yakunlariga ko'ra, tijorat banklari o'rtasida innovatsion faoliyat darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, yirik va xorijiy sarmoyadorlar ishtirokidagi banklar innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytirishda yetakchilik qilmoqda.

Masalan, Kapitalbank eng yuqori innovatsion ko'rsatkichlarga ega bank sifatida ajralib turadi. U 7 ta raqamli xizmat turini joriy qilgan bo'lib, mobil ilova foydalanuvchilari soni 2,8 million nafarni tashkil etmoqda. Bu bank tomonidan raqamli transformatsiyaga katta investitsiyalar kiritilganini va foydalanuvchilar ehtiyojiga mos xizmatlar ishlab chiqilganini anglatadi. Shu bilan birga, u tomonidan amalga oshirilgan QR to'lovlar soni 45 milliontani tashkil qilib, bozorda yetakchilik qilayotganini ko'rsatmoqda.

Hamkorbank ham innovatsion faoliyatda faol bo'lib, 6 ta raqamli xizmat joriy etilgan. Uning mobil ilova foydalanuvchilari 2,1 millionga yetgan bo'lib, bu bankning mintaqaviy tarmoqlarda ham raqamli xizmatlarni samarali joriy qilayotganini ko'rsatadi. QR to'lovlar soni 29 milliontani tashkil etgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich "Kapitalbank"ga nisbatan ancha past.

TBC Bank – Gruziya sarmoyasi ishtirokidagi bank sifatida raqamli xizmatlar bo'yicha juda yuqori darajaga ega. U 100% raqamli bank bo'lib, filiallarsiz ishlaydi. 6 turdagi raqamli xizmat mavjud va mobil ilova foydalanuvchilari soni 2,4 millionga yetgan. Bu bank raqamli bank modeli bo'yicha O'zbekistonda innovatsion yechimlar laboratoriyasiga aylangan.

Ipoteka Bank esa davlat ishtirokidagi banklar orasida ilg'orlar safida. U 5 ta innovatsion xizmatni joriy etgan, foydalanuvchilari 1,7 millionni tashkil qiladi. QR to'lovlar soni 18 millionga teng bo'lib, bu bankning konservativroq yondashuvi va bosqichma-bosqich raqamlashtirish siyosatidan darak beradi.

Agrobank va Asaka banklarda innovatsion faoliyat nisbatan sustroq kechmoqda. Har biri atigi 3–4 turdagi raqamli xizmatlarni taklif qilmoqda. Mobil ilova foydalanuvchilari soni mos

ravishda 1,1 mln va 0,9 mln atrofida bo'lib, bu banklarda texnologik transformatsiya imkoniyatlari cheklanganligini ko'rsatadi. QR to'lovlar soni esa 10 milliondan kam, bu ko'rsatkichlar banklar ichki infratuzilmasining cheklanganligi va xizmatlar ommabopligining pastligini anglatadi.

3-jadval

Raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning yillik o'sishi

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Mobil bank ilovalari foydalanuvchilari (mln)	4,1	5,7	8,9	11,3	13,8
Internet-banking foydalanuvchilari (mln)	1,9	2,6	4,4	6,1	8,2
Raqamli to'lovlar hajmi (trln so'm)	29,6	41,5	65,3	92,8	121,4
QR to'lov terminallari soni (ming dona)	12	28	61	95	134

Manba: Muallifning ilmiy izlanishlari natijasida shakllantirildi

2020-2024-55yillar davomida O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarida raqamli xizmatlarga talab keskin ortgan bo'lib, bu holat mobil ilovalar, internet-banking va QR to'lov tizimlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar soni va hajmida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, mobil bank ilovalari foydalanuvchilari soni 2020-yildagi 4,1 million nafardan 2024-yil yakuniga kelib 13,8 million nafarga yetgan. Bu esa to'rt yil ichida foydalanuvchilar sonining qariyb 3,4 baravar ortganini ko'rsatadi. Shunga o'xshash tarzda, internet-bankingdan foydalanuvchilar soni ham 1,9 milliondan 8,2 milliongacha o'sib, 4,3 baravar oshgan.

Bu dinamik o'sishlar O'zbekistonda bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni jadallashganini va aholi tomonidan ushbu xizmatlarga ishonch ortayotganini ko'rsatadi. Aholi orasida qulay, tezkor va xavfsiz to'lov vositalariga talab yuqoriligi tufayli raqamli xizmatlar banklar uchun muhim strategik yo'nalishga aylanmoqda.

Raqamli to'lovlar hajmi esa 2020-yildagi 29,6 trln so'mdan 2024-yilda 121,4 trln so'mgacha ko'tarilgan. Bu esa 4 yilda to'lov hajmining 4 baravardan ziyod o'sishini anglatadi. Ushbu o'sish banklar tomonidan joriy etilgan innovatsion texnologiyalar samaradorligini va mijozlar orasida ularga bo'lgan talabning yuqoriligini tasdiqlaydi. Bu jarayon nafaqat banklar uchun operatsion xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, balki butun moliyaviy tizimda likvidlik va nazorat darajasini oshiradi.

Shuningdek, QR to'lov tizimlari infrastrukturasi ham sezilarli darajada kengaygan. Agar 2020-yilda bor-yo'g'i 12 mingta QR terminal mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 134 mingtagacha yetgan. Bu esa 11 baravarlik o'sishni bildiradi. QR to'lov texnologiyalari qulayligi, soddaligi va xavfsizligi bilan ajralib turadi, ayniqsa kichik biznes va chakana savdo tarmoqlarida keng qo'llanmoqda. Ushbu tizimlarning kengaytirilishi naqd pul aylanmasini kamaytirish, "soya iqtisodiyoti"ni qisqartirish va tranzaksiyalarni hujjatlashtirish darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki banklar o'rtasida innovatsion rivojlanish darajasining nomutanosibliigi mavjud. Tahlillar ko'rsatmoqda-ki, tijorat banklarining innovatsion faoliyat darajasi ularning moliyaviy va texnologik imkoniyatlariga bevosita bog'liq. Yirik, xususiy yoki xorijiy kapital ishtirokidagi banklar (masalan, Kapitalbank, TBC Bank) raqamli xizmatlar va texnologiyalarni joriy etishda yetakchilik qilmoqda. Kichik yoki davlat ishtirokidagi banklar esa bu borada sust harakat qilmoqda. Innovatsion infratuzilmani teng rivojlantirish maqsadida kichik va o'rta banklar uchun maxsus davlat-grantlari, texnologik modernizatsiya fondlari va xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokidagi qo'llab-quvvatlash dasturlari yo'lga qo'yilishi lozim.

Ko'pchilik banklarda texnologik yechimlar joriy etilsa-da, xodimlarning raqamli kompetensiyasi va yangiliklarni amaliyotda samarali qo'llash salohiyati yetarli darajada emas. Bu esa yangi tizimlar to'liq ishlamay qolishiga yoki foydalanuvchi ehtiyojini qondira olmasligiga

olib kelmoqda. Har bir bankda doimiy asosda innovatsion malaka oshirish markazlari tashkil etilishi, xorijiy tajribalarni o'rganishga yo'naltirilgan stajirovkalar tashkil qilinishi lozim. Bundan tashqari, banklar o'z IT va innovatsiya bo'limlarini mustaqil strategik blok sifatida shakllantirishlari kerak.

Aksariyat raqamli bank xizmatlari umumiy interfeysga ega bo'lib, individual mijoz xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali moslashtirilgan xizmatlar yetarli emas. Bu esa xizmat sifati va mijoz sodiqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Banklar sun'iy intellekt, Big Data va mijozlar segmentatsiyasi asosida personalizatsiyalangan xizmatlar tizimini yo'lga qo'yishlari zarur. Masalan, avtomatik kredit rejalari, individual sodiqlik dasturlari va moslashtirilgan reklama takliflari orqali mijozga yaqinlashish mumkin.

Tijorat banklari innovatsiyani asosan texnik vositalar (mobil ilova, QR, onlayn to'lovlar) joriy etish sifatida tushunmoqda. Biroq haqiqiy innovatsiya – bu xizmat va mahsulotlar yondashuvining tubdan yangilanishidir. Banklar servis dizayni, mijozlar tajribasi kabi metodologiyalar asosida innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishlari zarur. Shuningdek, fintech startaplar bilan hamkorlik asosida ham yangi moliyaviy xizmatlar yaratish mumkin.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/ References:

Abdullayeva Sh.Z. (2017). Bank ishi. Darslik. T: Iqtisod-moliya. 535-540 b. Sanicola L. "What is FinTech?". Huffington Post. Retrieved 20 August.

Akbarov A. (2025). Tijorat banklarida samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash: xorijiy tajriba va O'zbekistonda qo'llash. Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika, 4(2), 105–107. <https://inlibrary.uz/index.php/zdit/article/view/64267>

INVEXI (2024). O'zbekiston tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida 2024-yil 1-iyul holatiga ma'lumot - INVEXI: Investitsiya Konsalting Boshqaruv Kompaniyasi. [online] INVEXI: Investitsiya Konsalting Boshqaruv Kompaniyasi - Konsalting xizmatlari: Investitsiyalarni jalb qilish, Strategiya ishlab chiqish, Savdoni moliyalashtirish, O'zbekistonda xorijiy kompaniyalar manfaatlarini ifodalash, FinTech, Biznes rejalashtirish, Texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish, Marketing xizmatlari. Available at: <https://invexi.org/uz/press/the-main-indicators-of-commercial-banks-of-uzbekistan-as-of-july-1-2024/>

Khodjimamedov A. (2022). Bank tizimini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari //Economics and Innovative Technologies. – T. 10. – №. 4. – C. 1-9.

Shuxrat Abduvaliev (2024). Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida 2024-yil 1-iyul holatiga (banklar kesimida) ma'lumot. [online] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

Tangishov M. (2015) Innovatsion bank mahsulotlari: banklar uchun eng dolzarb masala. //Biznes-ekspert, No6 (90).

Tashmatov Sh.H. (2021). Innovatsion rivojlanish sharoitida bank tizimi faoliyatini rivojlantirish //Qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish va investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari. – C. 45.

Вахрушев Д.С., Кальсина Е.А. (2013). Влияние глобализационных процессов на инновационность банковской деятельности и факторы инновационных изменений в банковской системе России. Интернет-журнал "Науковедение". Вып. 6, ноябрь –декабрь URL:<https://naukovedenie.ru/>.

Губернаторов А.М. (2015). Методология и организация управления инновационным развитием отрасли. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва г.

Закшевский В.Г., Пашута А.О. (2021). Теоретические аспекты развития инновационных банковских продуктов на современном этапе. ВестникВоронежского государственного аграрногоуниверситета. No 3. С. 214–220.

Прохоров К.Н. (2014). Инновации в банковской сфере. Проблемы учета и финансов. No 4. С. 55–58.

Хакимов А. (2021). Рақамли иқтисодиёт шароитида тижорат банкларининг инновацион фаолияти. Экономика и инновационные технологии, (5), 305–311. https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/12165